

## TURKFRONTNING MILLIY TILLARDAGI HARBIY NASHRLARI OZODLIK UCHUN KURASHGA QARSHI MAFKURAVIY TARG'IBOT VOSITASI SIFATIDA

**Alijon Itolmasovich SAFAROV**

Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasini mudiri  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## ВОЕННЫЕ ГАЗЕТЫ ТУРКФРОНТА НА НАЦИОНАЛЬНЫХ ЯЗЫКАХ — ИНСТРУМЕНТ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОПАГАНДЫ ПРОТИВ БОРЬБЫ ЗА СВОБОДУ

**Алижон Итолмасович САФАРОВ**

заведующий кафедрой военной и спортивной журналистики  
доктор филологических наук (PhD), доцент  
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана  
Ташкент, Узбекистан

## THE MILITARY NEWSPAPERS OF THE TURKFRONT IN NATIONAL LANGUAGES ARE AN INSTRUMENT OF IDEOLOGICAL PROPAGANDA AGAINST THE STRUGGLE FOR FREEDOM

**Alijon Itolmasovich SAFAROV**

Head of the Department of Military and Sports Journalism  
Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor  
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan [alijons1672@gmail.com](mailto:alijons1672@gmail.com)

UDC (UO'K, УДК): 808 (575.1)

**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Safarov A.I. Turkfrontning milliy tillardagi harbiy nashrlari ozodlik uchun kurashga qarshi mafkuraviy targ'ibot vositasi sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 1. — B. 157-174.

<https://doi.org/10.36078/1710236947>

**Received:** December 20, 2023


**Accepted:** February 17, 2024

**Published:** February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).  
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda sho'ro tuzumi Turkistonda harbiy nashrlar, xususan, mahalliy tillarda gazeta va jurnallar chop etishga katta e'tibor qaratgani bilan bog'liq muammoga to'xtalib o'tildi. Bunday nashrlarning tipologiyasiga oid masala markaziy gazetalar, front gazetalar, milliy (baynalmilal) gazetalar misolida ochib beriladi. Turkkomissiya, Revvoyensovet fronti a'zolari, mahalliy rahbar xodimlar hamkorlikda milliy harbiy matbuotni yaratish va g'oyaviy-tashkiliy jihatdan mustahkamlash, baynalmilal askarlar uchun nashrlar chiqarishga kirishgani bilan bog'liq muhim jarayonga fundamental ishlar orqali oydinlik kiritildi. Xususan, qizil armiyadagi turli millat vakillari tilida nashrlarni ko'paytirishga sovet hukumatini nega katta kuch va vositalarni tashlagani tahlilga tortildi. Mahalliy tilda, baynalmilal xalqlar tilida harbiy nashrlar chop etish orqali sho'rolar Turkistonda avj olgan ozodlik, erk uchun kurashni bostirishda harbiy asirlarni, yerli xalq vakillarini qizil armiya safiga ko'proq kiritish, ularni chirkin siyosati haq ekanligiga ishonirish yo'lidan borgani maqolada isbotlandi. Muallif tilga olinayotgan davrda chop etilgan harbiy nashrlarning asl maqsad va vazifalari haqida quyidagi xulosalarga keldi: Turkiston xalqlarining milliy ozodligi uchun kurashini "bosmachilik" harakati sifatida buzib ko'rsatish; tarixiy haqiqatni soxtalashtirish; soxta sovet mafkurasi

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



yordamida qizil armiya saflarini mahalliy aholi, harbiy asirlar hisobiga butlash; ijtimoiy fikrda qizil armiyaga nisbatan ijobiy fikrlarni hosil qilish; sho'ro dushmanlariga qarshi ayovsiz kurash ruhini singdirish; mafkuraviy targ'ibotni kuchaytirish.

**Kalit so'zlar:** Turkiston; harbiy; “*Shefor*”; “*Sadoi fuqaro*”; harbiy gazeta; sho'ro; armiya; front; milliy ozodlik.

**Аннотация.** Исследование в статье будет сосредоточено на проблеме, связанной с тем, что режим Советов уделял большое внимание публикации военных изданий в Туркестане, в частности газет и журналов на местных языках. Вопрос типологии таких изданий раскрывается на примере центральных газет, фронтовых газет, национальных (интернациональных) газет. Значимый процесс, связанный с созданием и идейно-организационным укреплением национальной военной прессы, публикаций изданий для солдат разных национальностей, был связан с фундаментальными работами членов Туркомиссии, Реввоенсовета фронта, местного руководящего персонала. В частности, подлежит анализу, почему советское правительство бросало огромные силы и средства на увеличение числа публикаций на языке представителей разных национальностей в Красной Армии. Печатаемые военные издания на родном языке, на языках разных народов, Советы шли по пути подавления разгоревшейся в Туркестане борьбы за свободу, более активного включения в ряды Красной Армии представителей коренного народа, убеждения их в правоте уродливой политики. Автор делает следующие выводы об истинных целях и задачах военных изданий, печатавшихся в эпоху, о которой идет речь: искажение борьбы народов Туркестана за национальное освобождение как движения “басмачества”; фальсификация исторической правды; комплектование рядов Красной Армии за счет местного населения и военнопленных с помощью ложной советской идеологии; формирование в общественном мнении положительного отношения к Красной Армии; привитие духа беспощадной борьбы с врагами Советов; усиление идеологической пропаганды.

**Ключевые слова:** Туркестан; военные; «*Шефор*»; «*Садое фукаро*»; военная газета; армия; фронт; национальное освобождение.

**Abstract.** Abstract: Our history related to the struggle of the Turkestan people for national liberation was distorted and falsified during the Soviet era. Public opinion has been distorted, distorted by false ideas, especially as a result of misinterpretation through the media. The essence, purpose, and historical significance of the brave struggle of our ancestors against the Soviet government in period 1918-1924 was distorted. The ideologists of the despotic regime have been tried to falsify the historical truth, effectively using the power of the press in this. The press has become an important tool in breaking the resistance of the people to the Soviet government in Turkestan. This study will focus on the problem related to the fact that the Soviet regime pays great attention to the publication of military publications in Turkestan, in particular newspapers and magazines in local languages. The question of the typology of such publications is revealed by the example of central newspapers, frontline newspapers, national (international) newspapers. The collaboration of Turkcomission, members of the Revolutionary Military Council of the front, and local leadership personnel are

clarified through fundamental work in the process of creating and ideologically and organizationally strengthening the national military press in cooperation, as well as publication materials for internationalist soldiers. In particular, it is subject to analysis why the Soviet government devoted huge resources and efforts to increasing the number of publications in the language of representatives of different nationalities in the Red Army. By printing military publications in their native language, in the languages of international peoples, the Soviets followed the path of suppressing the struggle for freedom that broke out in Turkestan, volunteers, and more actively involved representatives of the indigenous people in the ranks of the Red Army, convincing them of the rightness of the “ugly” policy. The author draws the following conclusions: the true goals and tasks of military publications published during the period under discussion: distorting the struggle of the Turkestan peoples for national liberation as the “Basmachestvo” movement; falsification of historical truth; recruitment of the ranks of the Red Army from local residents and prisoners of war through false Soviet ideology; fostering positive attitudes towards the Red Army in public opinion; instilling a spirit of relentless struggle against Soviet enemies; strengthening ideological propaganda.

**Keywords:** Turkestan; military; “Shefor”; “Sadoi fukaro”; military newspaper; council; army; front; national liberation.

### Kirish

Turkiston xalqlarining milliy ozodligi uchun kurashi tariximizning ataylab buzib ko‘rsatilgan, soxtalashtirilgan, OAV orqali noto‘g‘ri talqin etilgan davri edi. Xususan, 1918–1924-yillarda sovet hokimiyatiga qarshi olib borilgan kurashlarning mohiyati, maqsadi, tarixiy ahamiyati buzib ko‘rsatildi. Mustabid tuzum mafkurachilari bunda matbuot kuchidan samarali foydalanib, tarixiy haqiqatni soxtalashtirishga urinishdi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bu borada ko‘plab izlanishlar olib borildi. Qahramon Rajabov, Dono Ziyoyeva kabi fidoyi olimlar o‘zlarining yangicha uslubiy, ilmiy yondashuvlari orqali Turkiston milliy ozodlik harakati tarixshunosligi bo‘yicha tarixiy haqiqatni tiklashdi.

Tilga olinayotgan davrda tadqiqotimiz uchun muhim jihatlardan biri harbiy jurnalistika bilan bog‘liq masala hisoblanadi. Olim P. Agapov fuqarolar urushi davrida Turkistonda harbiy matbuot, deb o‘rgangan. Tarixchi olim N. Xamayev tadqiqotida “O‘zbekistonda Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat va harbiy matbuot” deb nomlaydi (13). Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi xalqning qarshiligini sindirish, norozilik olovini so‘ndirishda boshqa vositalar ichida matbuot muhim ahamiyat kasb etgan. Shu nuqtayi nazardan Xamayevning fikriga qo‘shilamiz. Qo‘limizdagi ma‘lumotlar tahlili asosida buni isbotlashga urinamiz.

“O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalining 1967-yil 2-sonida P. Agapov muallifligidagi “К истории военной печати в советском Туркестане” sarlavhali maqola e‘lon qilingan (4, 40). Ilmiy maqolada muallif 1919-yil 25-iyulda Kaspiyorti fronti siyosiy bo‘limi huzuridagi milliy sho‘ba tomonidan Poltorask (hozirgi Ashxobod) da arman tilida “Shefor” (“Gornist”) nomli harbiy gazeta chop etilgani haqida ma‘lum qiladi. Shuningdek, taxminan shu davrda mazkur bo‘lim turkman va ozarbayjon tillarida “Sadoi fuqaro” nomli harbiy gazetani nashrdan chiqargani keltirib o‘tiladi. Olim turkmanistonlik tadqiqotchi

M. Annaqurdovning fundamental ishiga iqtibosan bu xususida ma'lum qiladi (1, 111).

Bundan ko'rinib turibdiki, sho'ro tuzumi Turkistonda shunchaki harbiy nashrlar chop etishga emas, ularni mahalliy tillarda ham chiqarishga e'tibor qaratgan. Nega, degan savol bizni o'ylantirdi. Bunga avvalo P.Agapovning maqolasidan hamda dissertatsiya avtoreferatidan javob izlashga urindik. Maqolada bunga quyidagi sabablar keltirib o'tilgan:

- *Turkistonda qizil armiya harbiy qismlarini tashkil etish va mustahkamlash;*
- *turkistonlik jangchilarning siyosiy tarbiyasini mustahkamlash;*
- *turkistonlik jangchilarni aksilinqilobiy qurolli kuchlarni yanchib tashlashga safarbar etish.*

Qizig'i shundaki, Turkistonda birin-ketin chop etila boshlangan va taxminan 30 tagacha yetgan harbiy gazeta bizni bitta davrga olib boradi. Bu 1918–1924-yillarni o'z ichiga olgan davr hisoblanadi. Tarix fanlari nomzodi P.Agapov dissertatsiyasi avtoreferatida bu davrni tadqiqot amalga oshirilgan paytdagi mafkuraviy talabdan kelib chiqib, "Turkistondagi asosiy aksilinqilobiy kuchlarni tor-mor etish" deb nomlaydi (2, 10). Tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabov esa "Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat" deb ataydi va tarixiy haqiqatni tiklaydi (7).

### Asosiy qism

Yuqorida mahalliy tilda chop etilgan harbiy nashrlar haqida qisman ma'lumot berdik. Shu o'rinda savol tug'iladi. Milliy ozodlik uchun kurash avjiga chiqqan davrda harbiy matbuotning tipologiyasi aslida qanday bo'lgan? Tadqiqotlarni, xususan P.Agapovning ilmiy ishini kuzatib turib, tilga olinayotgan davrda Turkistonda chop etilgan harbiy nashrlar tipologiyasiga oydinlik kiritildi. Unga ko'ra quyidagi ko'rinish aks etdi.

- *markaziy gazetalar;*
- *front gazetalari;*
- *milliy (baynalmilal) gazetalar.*

### Markaziy gazetalar

Bunday nashrlar Turkfront inqilobiy kengashi siyosiy bo'limlari muassislik qilishi hamda tarqalish ko'lami kengligi sababli markaziy nashrlar hisoblanadi. Mana shunday nashrlardan biri "Nabat revolyutsii" gazetasidir. 1920-yilning 15-yanvaridan e'tiboran "Gornist" gazetasi o'rniga "Nabat revolyutsii" nomida chiqa boshlagan. "Nabat revolyutsii" birinchi armiyaning siyosiy bo'limi matbuot organi sifatida chop etiladi. 1920-yil 6-may 83-sonidan boshlab Kaspiyorti viloyat revkomi va obkom partiyasi ham nashrga muassis bo'ladi (2, 18).

"Klich trudovogo kazachestva" gazetasi ham markaziy nashr sirasiga kiradi. "Klich trudovogo kazachestva" Turkrespublika kengashi markaziy ijroiyy qo'mitasining kazak bo'limi organi gazetasi hisoblanib, Turkiston bolsheviklarining qizil armiya ommaviy matbuotini rivojlantirishga qaratilgan 1919–1920-yillardagi siyosati natijasida tashkil etilgan.

Markaziy nashrlar ichida "Krasnoarmeyskaya gazeta"ning ham o'z o'ri bor. "Krasnoarmeyskaya gazeta" 1921-yildan boshlab Turkistonda chop etiladi. Haftasiga ikki marta chiqqan nashrga Turkiston respublikasi

qizil armiya va qizil gvardiya harbiy kengashi delegatlari organi muassislik qiladi.

Turkistondagi markaziy harbiy nashrlar ichida “Krasnaya zvezda” gazetasi muhim ahamiyat kasb etadi. “Krasnaya zvezda” Turkfront siyosiy boshqarmasi muassisligida 1921-yil 12-iyundan chiqa boshlaydi.

1920-yil yanvardan “Proletarskaya misl” gazetasi 2-Turkiston o‘qchi diviziyasining siyosiy organi sifatida chop etila boshlanadi. Partiya faoli va jurnalist A.Savin, keyinchalik partiya xodimi Yuliy Kirsh (1920-yil 15-oktyabrdan) nashrga bosh muharrirlik qiladi. Nashr Farg‘ona obkom partiyasining ham organi hisoblangan. Gazeta partiya topshirig‘i bilan Farg‘onada “bosmachilikka” qarshi kurashga safarbar etiladi.

“Krasniy front” gazetasi 1919-yildan chop etilib, Turkiston respublikasi harbiy inqilobiy kengashi huzuridagi siyosiy bo‘limning matbuot organi hisoblangan. D.Stratulenko muharrirligida chiqqan harbiy gazeta front bo‘ylab bepul tarqatiladi. 1919-yil 19-oktyabrda chop etilgan sonida “Qizil ko‘lanka”, “Qizil frontlarda”, “Inqilob va madaniyat”, 1919-yil 30-maydagi sonida esa “Kolchakda”, “Polshada”, “Buxoro” sarlavhali materiallar beriladi. Jumladan, “Buxoro” nomli maqolada mahalliy boshqaruv tanqid ostiga olinadi (10, 53).

### Front gazetalari

Bunday toifadagi gazetalar TURKFRONTNING joylardagi inqilobiy fronti siyosiy bo‘limlari tomonidan chop etiladi.

“Борец за коммунизм” gazetasi mana shunday nashrlardan biridir. 1920-yil 11-maydan Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi tomonidan “Борец за коммунизм” front gazetasi chiqarilgan. Unda Boris Lavrenev juda faol qatnashgan hamda ko‘plab karikatura chizib, nashrning qiziqarliligini ta‘minlagan (2, 18).

“Бой за коммунизм” front gazetasi ancha ommabop bo‘lgan. Turkistonning Yettisoy fronti inqilobiy kengashi Lepsin yo‘nalishi siyosiy bo‘limi matbuot organi hisoblangan mazkur front gazetasi taxminan 1919–1920-yillarda nashr etiladi.

Navbatdagi nashr “Gornist” front gazetasida ham qizg‘in jarayonlar haqida axborotlar berib turgan. Nashr 1919-yilda Turkiston respublikasi harbiy inqilobiy kengashi huzuridagi siyosiy bo‘lim organi tomonidan chop etilgan.

“Коммунар” Oqtyuba shimoli-sharqiy front organining front gazetasi hisoblanib, taxminan 1919–1920-yillarda nashr qilingan.

Oqtyuba shimoli-sharqiy front organining yana bir nashri “Наша фронтовая жизнь” front gazetasi taxminan 1919–1920-yillarda nashr etilib, tarqatiladi.

P. Agapovning tadqiqotida “Putevodniy Ogonyok” front gazetasi haqida ham ma‘lumot uchraydi. Nashr Oqtyuba shimoli-sharqiy front organining front gazetasi hisoblanib, taxminan 1919–1920- yillarda chop etilgan (2, 10).

Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonaning nodir nashrlar bo‘limida “Раненый Красноармеец” nomli varaqaning bir nusxasi topildi. Ya‘ni kutubxonaning g-16 (sb) fondida nashrning 1920-yil 16-sentyabrda chiqqan 2-soni topildi. “Раненый Красноармеец” adabiy-siyosiy varaqa sifatida chop etiladi. Varaqa yarador qizil askarlar hamda kasallarga

yordam berish haftaligi doirasida chiqarilgan va ikki sahifadan iborat. Varaqada “Amaliy ishga”, “Qizil armiya buguni va kelajagi”, “Namuna bo‘ling”, “G‘arbiy frontda” kabi materiallar berilgan bo‘lib, ular asosan yarador va xastalarga yordam berishga da‘vat sifatida yangraydi (10, 53). Mazkur nashrni ham front gazetolari toifasiga kiritish mumkin.

### **Milliy (baynalmilal) gazetalar**

TURKFRONTNING joylardagi siyosiy bo‘limlari milliy seksiyalari milliy nashrlarni chop etishga kirishgan. Turkkomissiya, Revvoyensovet fronti a‘zolari, mahalliy rahbar xodimlar hamkorlikda milliy harbiy matbuotni yaratish va g‘oyaviy-tashkiliy jihatdan mustahkamlash, baynalmilal askarlar uchun nashrlar chiqarishga kirishadi. Partiya qurultoyida qo‘yilgan vazifani, ya‘ni milliy, mahalliy matbuotni targ‘ibot yo‘lida kuchaytirishga e‘tibor qaratiladi. Bu xususida maqola davomida alohida to‘xtalamiz. Yuqorida sanab o‘tilgan uchta jihat masalaning qanchalar dolzarb ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi:

- *milliy harbiy matbuotga asos solish;*
- *g‘oyaviy-tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;*
- *qizil armiyadagi turli millat vakillari tilida nashrlarni ko‘paytirish.*

Turli millat vakillari deganda nima nazarda tutilgan, degan savol shu o‘rinda bizni o‘ylantirdi. Internetda keltirilgan ma‘lumotga tayanadigan bo‘lsak, Turkistonda 1918-yilning oxirida qizil armiya safida birinchi jahon urushining 2,5 mingdan ortiq harbiy asirlari, ya‘ni baynalmilal jangchilari milliy ozodlik harakatiga qarshi muhorabaga kirgan (20). Buni Turkistonda baynalmilal nashrlar chop etishga bo‘lgan jiddiy sa‘y-harakatlar ham isbotlab turibdi. P. Agapovning tadqiqotida bu haqida ma‘lumot beriladi. Masalan, Turkiston kommunistlarining janubiy slavyan guruhi organi tomonidan 1919-yil aprelda o‘lka xorijiy kommunistlari uchun “Vsemirnaya revolyutsiya” gazetasi chop etiladi (2, 20). I. Sologubovning “Inostranniye kommunisti V Turkestane, 1918–1921 gg” kitobida keltirilishicha, 1919-yilning oxirida Turkistondagi Qizil armiya qismlarida 4 ming, o‘lka xalq xo‘jaligida esa 22 mingga yaqin baynalmilalchilar faoliyat olib borgan (11, 148, 158). Bu raqamlarni yana bir manba bilan solishtirib ko‘rdik. SSSRning Markaziy statistika boshqarmasi harbiy statistika bo‘limi tomonidan tayyorlangan «Rossiya V pervoy mirovoy voyne 1914–1918 gg. (V sifrax)» nomli to‘plamda bu xususida ma‘lumotlar uchraydi. “Rossiya ichki hududlaridagi harbiy okruglardagi xorijiy harbiy asirlar soni” deb nomlangan 31-jadvaldan Turkiston bilan bog‘liq ma‘lumotlarga e‘tibor qaratdik (8, 40). Unda yozilishicha, Turkistonga keltirilgan harbiy asirlarning 1764 nafari ofitser, 39521 nafari esa oddiy askar bo‘lgan. Jami 41285 nafar harbiy asir Turkistonga olib kelingan. Harbiy asirlar orasidagi ofitserlarning 1714 nafari avstriyalik, 50 nafari germaniyalik, askarlarning 36006 nafari avstriyalik, 3515 nafari esa germaniyalik bo‘lgan. Ya‘ni Turkistonga keltirilgan harbiy asirlarni Avstriya va Germaniya armiyasiga qarashli harbiy xizmatchilar tashkil etgan. Bunda turli millat vakillari bo‘lishi mumkinligini ham inobatga olish zarur. Masalan, Germaniya armiyasiga qarashli harbiy asirlarning hammasi ham nemis millatiga mansub

bo'lmagan. Qizig'i shundaki, jadvalda asirlar orasida Turkiya va Bolgariya armiyasining harbiy xizmatchilari ham ko'rsatib o'tilgan. Biroq ulardan birontasi Turkistonga yuborilmagan. Nazarimda turk va bulg'orlarning Turkiston xalqlariga xayrixohlik bildirib, mahalliy aholi bilan birlashib, sho'rolarning o'ziga qarshi chiqishidan hayiqishgan. Jadvaldagi ma'lumotlarda qayd etilishicha, Turkistondagi Avstriya va Germaniya armiyasiga qarashli harbiy asir askarlarning 23587 nafari qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etiladi. I. Sologubovning ma'lumotlari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, 1919-yilga borib harbiy asirlar soni biroz kamayganini ko'ramiz. Buning sabablari sifatida turli omillarni, ya'ni 1917–1918-yillarda boshqa hududga ko'chish, o'zboshimchalik bilan Rossiyaga ketish, yaradorlik va xastalikdan vafot etish kabilarni ko'rsatish mumkin. Natijada 1918-yilning o'rtalariga kelib Turkistonda 32 ming, shu jumladan, Toshkentda 11 mingga yaqin harbiy asir qoladi (16).

Oktyabr to'ntarishidan keyin harbiy asirlar lager rejimidan ozod qilinadi, erkinlikni qo'lga kiritishadi. Ularning ayrimlari hatto xonadonlarga ko'chib o'tishadi. Turkistondagi sovet hukumati byudjet bilan bog'liq muammoga qaramasdan harbiy asirlarning yashashi va oziqlanishi uchun mablag' ajratishda davom etadi (17). Bundan sho'rolarning ko'zlangan maqsadi bor edimi? Xiyonat, aldov, zulm, istibdod asosiga qurilgan tuzum moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida harbiy asirlarning boshini nima uchun silashga qaror qildi?

Tarixiy haqiqatlar zamirida bu savollarga javob ko'p. Masalan, aynan harbiy asirlar yordamida sho'rolar Turkistonda ko'plab qonli terrorni amalga oshirishadi. "O'zbekistonning yangi tarixi" kitobida keltirilishicha, Turkiston muxtoriyatini qonga botirishda sovetlar dashnoqlar bilan birga avstro-venger harbiy asirlaridan ham foydalanishadi (14, 67). 1917-yilning oktyabr oyi oxirida Toshkentda muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi qo'shinlariga qarshi kurashda avstro-venger harbiy asirlari qo'llaniladi. Shu sababli ham milliy ozodlik harakatini bostirishda harbiy asirlarni ko'proq qizil armiya safiga kiritish, ularni urushga yanada faol safarbar etish bo'yicha kommunistik partiya targ'ibotga, jumladan, matbuotga tayanadi. Tadqiqotimizda keltirilayotgan baynalmilal nashrlarga ehtiyoj zamirida sho'ro mafkurasining g'arazli maqsadi yashirin edi. Oktyabr to'ntarishidan keyin o'rnatilgan sovet hukumati harbiy asirlarga qo'shtirnoq ichida bo'lsa-da, ozodlik bergani uning siyosatiga xayrixohlik paydo qilardi. Shu sababli hurriyatini qo'lga kiritgan harbiy asirlarning bir qismi sovet hokimiyatini xursandchilik bilan qarshilashadi. Ularning ayrimlari mahalliy aksilinqilobiy kuchlarga yaqinlashsa, muayyan qismi sho'rolar tuzumidan umidvor edilar (12, 333). Masalan, Chimkentdagi nemis harbiy asiri Gans Sebrovsk "taqdirimiz O'rta Osiyodagi mehnatkashlar taqdiri bilan mahkam bog'langan. Ularning g'alabasigina bizga erkinlik olib kelishi mumkin" deydi (6, 157). Sho'rolar targ'iboti bilan zaharlangan shu kabi harbiy asirlar Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilishi yo'lida kurashga kirishadi. "Интернационалисты. Трудящиеся зарубежных стран — участники борьбы за власть Советов" kitobida keltirilishicha, 1917-yilning oxiri va 1918-yilning boshlarida Shvetsiyaning Qizil Xoch tashkiloti, mahalliy tashkilotlar vakillarining qarshiligiga qaramay, qizil gvardiyaning Samarqand, Yangi Buxoro (Kogon), Skobelev (Farg'ona), Qo'qon,

Chorjo'y, Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l), Vernogo (Olmaota), Pishpek (Frunze) va boshqa shahar, posyolkalardagi otryadlari tarkibiga harbiy asirlardan iborat o'nlab ko'ngillilar kiradi (5).

1919-yil 25-avgustda Turkrespublika inqilobiy harbiy kengashi siyosiy bo'limining baynalmilal bo'linmasi tomonidan bir vaqtning o'zida nemis, venger, slovak va rumin tillarida "Svoboda narodov" gazetasi chop etiladi. Ya'ni mazkur haftalik asosan nemis va venger, ilovasi esa slovak va rumin tillarida chiqqan. Nashrning birinchi sonida gazetxonlarga yo'llangan murojaatda quyidagicha yozilgan: "*O'rtoqlar! Toshkent shahridagi xorijiy ishchi va dehqonlar kommunistik tashkiloti o'z baynalmilal gazetasining birinchi sonini chiqarar ekan, o'rtoqlarni qutlaydi va barcha mehnatkashlarni ozod qilish uchun burjuaziya bilan mashaqqatli kurashda g'olib bo'lib chiqishini tilaydi... Gazetamizning maqsadi — barcha mehnatkashlarni umumjahon erkinlikni qo'lga kiritishda birlashishga yordamlashish va chaqirish*" (15, 41). Mana shu da'vatning o'zi ham harbiy asirlarni urushga safarbar etish partiyaning oldida turgan jiddiy vazifa ekanligini ko'rsatadi. I. Sologubovning yozishicha, internatsional bo'linma gazetada baynalmilalchilarning jangovar faoliyatini muntazam yoritishga katta e'tibor qaratadi. Bunda asosan ikkita katta yo'nalishda axborot beriladi: front va front orti bo'yicha. Bunga to'la asos bor edi. Sababi yuqorida keltirilganidek, harbiy asirlarning bir qismi Qizil armiya safida qonli terrorga tashlangan bo'lsa, kattagina qismi xalq xo'jaligiga, ya'ni qishloq xo'jaligi sohasiga jalb etilgan edi. Shuning uchun bir vaqtning o'zida urushdagi jangovar qahramonliklarni hamda mehnat frontidagi yutuqlarni targ'ib qilishga ehtiyoj paydo bo'lgandi. Bunga erisha olishdimi? P.Agapovning yozishicha, Turkiston kommunistik partiyasi uchinchi qurultoyida o'lka xorijiy kommunistlar qo'mitasi hisobot berib, "Svoboda narodov" gazetasining 18 ta soni nemis, 18 soni venger tillarida chop etilgani aytiladi. Shuningdek, har biri 2 ming nusxadan bo'lgan 6 ta risola ham nashr qilinadi. Bu sho'ro hukumati sobiq harbiy asirlarning g'oyaviy-siyosiy tarbiyasi yo'lida, miyasini mag'zi puch mafkurasi bilan to'ldirish yo'lida matbuot orqali jiddiy harakat qilganidan dalolat. Chop etilayotgan materiallar g'oyasi harbiy asirlar ongiga asosan quyidagilarni singdirgan:

- *sho'rolar olib borayotgan siyosatning ezilgan mehnatkashlarni ozod qilishga qaratilganiga ishonchni mustahkamlash;*
- *aksilinqilobchilarga qarshi beayov kurashga to'liq safarbarlik ruhini oshirish;*
- *vayron bo'lgan xalq xo'jaligini, qishloq xo'jaligini tiklashga qaratilgan safarbarlik hissini tarbiyalash.*

Yana bir qiziq fakt. Turkiston kommunistik partiyasi uchinchi qurultoyidan keyin "Svoboda narodov" gazetasi bosh muharrirligiga partiya xodimi, venger F. Lorand tayinlanadi. Bu shaxs haqida qo'shimcha ma'lumotlar "Интернационалисты. Трудящиеся зарубежных стран — участники борьбы за власть советов" kitobidan topildi (5). Ma'lumotga ko'ra, 1918-yilning iyulida Toshkentga Orenburg xorijiy kommunistlar tashkiloti va fronti kommunistlari I. Vays, I. Zenfteleber, F. Lorand, I. Elenfi, I. Shvarsenberglar kelishadi. Ular xorijiy ishchi va dehqon tashkiloti markaziy ijroiya qo'mitasi topshirig'i bilan harakat qiladilar.



Ya'ni 1918-yilning avgustidan boshlab Turkistondagi sobiq harbiy asirlar o'rtasida qator miting, yig'ilishlar o'tkazib, bolsheviklar siyosatini keng targ'ib etishadi. Partiya proletariatning, kambag'al dehqonlarning, birinchi navbatda, xorijiy kommunistlar manfaatining himoyachisi ekanligini aytib, harbiy asirlarni inqilobiy harakatlarga, xususan, frontga faol jalb etishga harakat qilishgan. Demak, Loranddek ishonchli kishisini harbiy nashr bosh muharrirligiga qo'yishdan maqsad ham harbiy asirlarning ongini ko'proq zaharlash bo'lgan.

Keyinchalik mazkur nashr o'rniga turli tillarda alohida gazetalar paydo bo'ladi. "Rote fane" (Qizil bayroq) gazetasi shulardan biri hisoblanadi. 1920-yil mart oyidan boshlab Turkistondagi nemis kommunistlari tomonidan "Rote fane" nomida nemis tilida harbiy gazeta chop etiladi (2, 19). 1920-yilning 1-mayidan boshlab esa yugoslav kommunistlarining "Srveni baryan" ("Qizil yulduz") nomli gazetasi nashr qilingan (2, 20–21). 1920-yil mart oyidan Turkistondagi venger kommunistlari tomonidan "Vyoresh uyshag" (Krasnaya gazeta) harbiy gazetasi chop etiladi (2, 19). "Shulai inqilob" jurnali va "Najot" gazetasini fors kommunistlari uchun chop etishadi (2, 20).

"Djanga urs" (Yangi urush) gazetasi turkistonliklar tilida chop etilgan nashrlar sirasidan. Ya'ni Turkfront siyosiy boshqarmasi tomonidan 1920-yilning iyun oyidan qozoq tilida chop etilgan harbiy gazeta hisoblanadi (2, 19).

Kaspiyorti fronti siyosiy bo'limi huzuridagi milliy seksiya tomonidan Poltorask (hozirgi Ashxobod) da turkman tilida "Sadoi fuqaro" nomli harbiy gazeta chop etiladi. Muhammad Durdi Annaqurdovning taxminicha, Sadoi fuqaro" nomli harbiy gazeta 1919-yilning 12-avgustidan chiqa boshlagan (1, 111). Biroq bu haqida tarixiy, ilmiy manbalar bilan tasdiqlangan ma'lumot uchramaydi. Tarix fanlari nomzodi P. Agapov keltirishicha, Kaspiyorti fronti inqilobiy kengashi siyosiy bo'limining 1919-yil 6-avgustdagi buyrug'ida shunday yozilgan: "musulmon sho'basi mudiri bildirgisiga muvofiq "Sadoi fuqaro" musulmon gazetasi menga qarashli siyosiy bo'limning xodimlari o'rtoq Agavachquljavazov va O'roz Durdi Quliyev tomondan joriy yilning 1-avgustidan boshlab chop etiladi" (15, 40).

Mazkur gazetaning vazifalari xususida Turkmaniston matbuotining keksa xodimlari Y. Nosiriy va G. Husainovlarning xotiralarida uchraydi. Xususan, G. Xusainovning fikricha, nashrdan ko'zlangan asosiy maqsad endigina mustahkamlana boshlagan sovet hokimiyatini, kambag'allar va milliy kontingentdan tuzilgan qizil armiya qismlarini mehnatkashlar o'rtasida ommalashtirish bo'lgan.

Y. Nosiriyning ma'lum qilishicha, dastlab "Sadoi fuqaro" gazetasi redkollegiyasini Turkfront siyosiy bo'limining musulmon sho'basi tashkil etadi. 1919-yil 1-dekabrda boshlab nashr Ashxoboddagi viloyat musulmon byurosining matbuot organiga aylanadi. "Sadoi fuqaro" gazetasi katta o'lchamda ikki sahifada chop etiladi. Viloyat musulmon byurosi mudirining keltirishicha, gazeta 1920-yil yanvar oyida 800 nusxadan 2 marta, fevral oyida esa 1000 nusxadan 8 marotaba chop etiladi (1, 111).

Muhammad Durdi Annaqurdov gazetaning 1920-yil 15-yanvardagi 2-sonini o'rganib, nashr nafaqat turkman, balki forsiy hamda arabiy

so‘zlarga boy ozarbayjon tilida chop etilganini yozadi. Shu sababli ham “Sadoi fuqaro” gazetasini oddiy turkman mehnatkash xalqining o‘qishi qiyin bo‘lgan. Gazeta 1920-yilning apreliyga chop etiladi.

“Uchqun” (Iskra) gazetasi. 1920-yilda Yettisoyda chop etilgan “Uchqun” (Iskra) gazetasi uchinchi Turkdiviziya siyosiy bo‘limini organi hisoblangan. D.Furmanov tashabbusi bilan chop etilgan.

Ziyo Saidning “Tanlangan asarlar” kitobida o‘zbek tilida chop etilgan “Qizil yulduz” nomli harbiy gazeta haqida ma’lumot beriladi (9). Kitobda keltirilishicha, gazeta Turkiston fronti shtabi tomonidan 1925-yilda chop etiladi. “Qizil yulduz” gazetasidan nima maqsad ko‘zlangan edi? Z.Saidning fikriga asoslanib, nashrdan ko‘zlangan maqsadlarni ikkiga ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan:

- *qizil qo‘shin ichida yaqinda tuzilgan va tuzilayotgan milliy bo‘linmalar askarlari o‘rtasida keng targ‘ibot, tashviqot ishlarini olib borish;*

- *askarlarni hukumat ishlari bilan tanishtirish;*

- *milliy bo‘linmalardagi o‘zbek askarlarini respublika hayoti hamda baynalmilal ahvol bilan tanishtirish.*

Ikkinchidan:

- *mahalliy aholi, xususan mehnatkashlar o‘rtasida qizil qo‘shin uchun milliy bo‘limlar tuzish fikrini tarqatib, ijtimoiy fikrga ta’sir etish;*

- *mahalliy aholi bilan qizil qo‘shin o‘rtasidagi munosabatni yaxshilash.*

Ziyo Saidning yozishicha, 1925-yilda gazetaning 11 ta soni chop etiladi. Bunga asosiy sabab qilib moddiy omil keltirib o‘tiladi. Ya’ni nashr muntazam chiqib turishi uchun mablag‘ topilmaydi. 1927-yilda “Qizil yulduz” gazetasi M.Hasan tahriri ostida qayta chop etila boshlaydi. Ammo xo‘jalik va tarqatish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli oltita soni chop etilgach, uch oy davomida to‘xtab qoladi.

Keltirilgan ma’lumotlardan anglash mumkinki, Turkistonda milliy ozodlik harakatini bostirish davrida bolsheviklar qizil armiya matbuotini tashkil etish va rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratadi. Harbiy nashrlar tipologiyasining bunday shakllanishi bolsheviklar axborot berishning, manipulyativ ta’sir ko‘rsatishning turli usullaridan unumli foydalanishganini, matbuotni kuchli mafkuraviy qurol sifatida qo‘llay bilishgani, OAVni o‘z vaqtida ommaviy safarbar eta olishganini ko‘rsatadi. P.Agapovning keltirishicha, ichki va tashqi aksilinqilobiy kuchlarga qarshi eng murakkab va qiyin davrda ommaviy ravishda qizil armiya nashrlari tashkil etila boshlanadi. Markaziy, front va milliy gazetalar uchun umumiy xarakter kasb etuvchi quyidagi asosiy vazifalar belgilab beriladi:

- *armiyada kuchli mafkuraviy qurol sifatida ta’siri etishi;*

- *harbiy qism komandirlariga ishonchli yordamchisi bo‘lishi;*

- *harbiy komissarlar olib borayotgan g‘oyaviy ishlarda ko‘makchi bo‘lishi;*

- *partiya tashkilotlarining mafkura bilan bog‘liq ishlarida faol ko‘makchisi bo‘lishi (2, 10).*

Bu vazifalar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. P.Agapovning fikricha, 1919-yil RKP (b) sakkizinchi syezdining tarixiy qarori bunda

muhim rol o'ynadi. Ya'ni harbiy masalalarga bag'ishlangan qurultoyda "Partiyaviy va sovet matbuoti" haqida qaror qabul qilinadi hamda OAV uchun aniq vazifalar belgilab beriladi. Turkistonda aynan harbiy matbuotni bu davrda yanada rivojlantirishda 1919-yilning 14–31-mart kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi o'lka partiya konferensiyasining, 1919-yil 24–30-may kunlari o'tkazilgan musulmon kommunistlarining birinchi o'lka konferensiyasi va 1919-yil 1–15-iyun kunlari o'tkazilgan KPTning uchinchi syezdi qarorlari muhim o'rin tutdi (2, 10).

Shu o'rinda RKP (b) sakkizinchi syezdining "Partiyaviy va sovet matbuoti" haqidagi tarixiy qarorining muhim jihatlarini ko'rib chiqsak.

Qarorda fuqarolik urushi davrida partiyaviy ishlarning umumiy ravishda zaiflashgani partiya va sovet matbuoti ishiga ulkan zarar yetkazilgani aytiladi. Partiya va sovet matbuotidagi umumiy kamchilik sifatida quyidagi ikki jihat tanqid qilinadi:

- *mahalliy hayotdan uzilganlik;*
- *umumiy siyosiy hayotdan uzilganlik.*

Siyosiy jihatdan qo'yilgan bu ayblar kasbiy mahorat masalalari bilan bog'liq oqsashlar tanqidiga ulanadi. Ya'ni qarorda hajmi katta, auditoriyani qiziqirmaydigan, bayon qilish uslubi zerikarli materiallar, xususan, turli idora va muassasaning qarorlari, dekretlari e'lon qilinishi tilga olinadi. Bu kamchiliklarga sabab nimada? Partiya buni ham ko'rsatib beradi: "Partiyaning eng yaxshi adabiy kuchlari davlat ishlariga o'tib ketishdi, matbuot tajribasi kam xodimlar qo'lida qoldi" (3, 436). Vaziyat nega buni taqozo qildi? Nega qurultoyda muammo kun tartibiga keskin qo'yildi? Buni sovet matbuoti, xususan, Turkistonda milliy ozodlik uchun kurash boshlangan davrda chop etilgan harbiy nashrlardagi ayrim materiallar yordamida ko'rib chiqsak.

TURKFRONTNING harbiy inqilobiy kengashi nashri hisoblangan "Voyennaya misl" jurnalining 1920-yilda chop etilgan sonlaridan birida muallif V.Kuvshinov Farg'ona frontidagi ahvolni sharhlar ekan, "bosmachilik" avj olishiga sabab qilib, hokimiyat tepasidagilarning vazifasini suiiste'mol qilishayotganini hamda Turkiston muxtoriyati g'oyasi ahamiyatini yo'qotmaganini ko'rsatadi. Voqelikka xolis yondashib aytilgan jiddiy gap. Partiya qurultoyida aytilgan muammoga hamohang "Voyennaya misl" ga nisbatan "tajribasi kam, siyosiy savodxonligi yetishmaydigan xodimlar boshqargani uchun shunday maqolalar chop etilgan" desak to'g'ri bo'ladimi?!

1918–1924-yillarda chop etilgan mazkur harbiy jurnalda Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan bu harakatning mohiyatiga haqqoniy yondashuv va fikrlar aks ettirilgan maqolalar davom etgan. Masalan, N.To'raqulov jurnalning 1921-yil 2-sonida "Ferganskaya problema" maqolasida "bosmachilik" ni umumxalq harakati sifatida e'tirof etadi. Uning kelib chiqishiga sabab bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy omillarni tahlilga tortadi. Harakat xalqning to'lgan sabr kosasidan otilib chiqqanini baralla yozadi. "Voyennaya misl" jurnalining aynan tilga olinayotgan sonida e'lon qilingan yana bir maqola, ya'ni P.Baranovning materialida ham kurashning umummilliy, umumxalq harakati tusini olgani keltiriladi. Demak, qandaydir qaroqchi, to'da yoki banditlarning emas, xalqning noroziligi ekanligi maqolada aks etadi.

“Krasnaya armiya” jurnalining 1921-yil 9-sonida esa N.Batmanovning “Басмачество и борьба с ними” sarlavhali maqolasi e’lon qilingan bo’lib, unda muallif muammoga sovet hokimiyati aybdor ekanligini oshkora yozadi hamda tahlil qiladi.

S.Shur “Proletarskiy misl” gazetasining 1920-yil 4-iyuldagi sonidagi “Korni Basmachestvo” hamda “Krasnaya kazarma” nashrining 1923-yil 3-sonidagi “Борьба за красный Туркестан” nomli maqolalarida Farg’onadagi “bosmachilik” harakatini sovet hokimiyati ayrim mas’ul shaxslarining o’z vazifasini suiiste’mol qilishi oqibati, deb yozadi. OAVdagi bunday xolisona yondashuvlar va hali jilovlanmagan ijtimoiy qarashlar sho’rolarning Turkistonda zo’rlik bilan hukmronlikni o’rnatish siyosatiga zarar yetkazayotgandi. Matbuotdagi bunday xolis yondashuvlar sababli sovet hokimiyatining zulmi, zo’ravonligi yuzaga chiqayotgandi.

Haqqoniy axborotlar, mantiqqa asoslangan bunday fikrlar sho’ro hukumatining asl basharasini ochib qo’yishi mumkin edi. Haqiqatning o’zidan, ko’zidan qo’rqan tuzum voqelikni soxtalashtirish, soxta talqinni keng yoyish, oshkoralikni bo’g’ish yo’lini tutdi. Tarixchi olimano Dono Ziyoyevaning “Turkiston milliy ozodlik harakati” kitobida keltirilishicha, Turkistondagi milliy ozodlik kurashi haqidagi haqqoniy axborotlar, mulohazalar, tasavvurlarga barham berish uchun OAVga nisbatan bosim o’tkaziladi. Partiya nazorati bahonasida senzura o’rnatildi. Masalan, Turkistonda chop etilgan “Kommunist” gazetasi oshkoralik uchun keskin tanqid qilinib, partiya nazoratiga olinadi (4, 81).

Yana partiyaning yuqorida tilga olingan qaroriga qaytsak. RKP (b) sakkizinchi syezdining qarori 4-bandida OAV ga nisbatan nazoratni kuchaytirish maqsadida quyidagilar belgilanadi:

*a) partiyaviy va sovet gazetalari muharrirligiga tahririyatdagi barcha ishlarni olib borishga qodir eng mas’uliyatli, eng tajribali partiya xodimlarini tayinlash;*

*b) partiya qo’mitalari tahririyatlarga umumiy siyosiy direktivalar va ko’rsatmalar berishi va ularning bajarilishini nazorat qilishi, bunda tahririyatning kundalik mayda-chuyda ishlariga aralashmasligi kerak;*

*v) operativ va harbiy-tashkiliy xarakterdagi masalalar doirasida qat’iy harbiy senzura joriy etilishi kerak (3, 437).*

Mazkur talablarni qanday tushunish mumkin? Avvalo bu OAVni to’liq partiyaning nazoratiga o’tkazish degani. Jamiyatda sog’lom fikrni, so’z erkinligini bo’g’ish sari jiddiy qadam tashlangandi. Hukmron kommunistik mafkura manfaatlariga matbuotni zo’ravonlarcha bo’ysundirish shu tariqa amalga osha boshladi. Bu siyosatni Turkiston bilan bog’lab aytadigan bo’lsak, qizil armiya siyosiy bo’limlari, partiya tashkilotlarining mafkura, targ’ibot-tashviqot bo’limlari, matbuot shu vazifaga bo’ysundirildi. Ya’ni sovet hokimiyatiga qarshi kurash haqida soxta tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan vazifani nazarda tutyapmiz.

1922-yilga kelib esa RKP (b) markaziy qo’mitasi matbuot nashrlarini qat’iy nazoratga olish, tahririyat a’zolarini partiya sodiq kishilar bilan almashtirish haqida ko’rsatma berdi, deb yozadi D.Ziyoyeva (4, 81). Tarixchi olimaning fikriga e’tibor qaratadigan bo’lsak, qaror qabul qilinganidan uch yil o’tib, ijrosi bo’yicha keskin choralarga o’tilgan, degan xulosa kelib chiqadi. Demak, matbuot partiya chizgan chizig’idan borishga majbur qilindi. Sinalgan usul qo’llanildi. Natijada sovetlarga qarshi milliy

ozodlik harakati haqida mutlaqo soxta tasavvurlar OAV yordamida shakllantirildi. Buni partiya markaziy qo'mitasi qaroridan keyingi voqealar dinamikasida ko'rib o'tadigan bo'lsak, "Yangi Sharq" (1920-yil, 92-son), "Yejenedelnik politrabotnika" (1920-yil, 1-son), "Krasnaya Fergana" (1921-yil, 61-son), "Qizil Bayroq" (1921-yil, 17-son), "Turkestanskaya pravda" (1921-yil) kabi gazetalarda "bosmachilik harakati" degan tuhmat millat peshonasiga bosib borilganini ko'ramiz.

Tilga olingan hujjatlarga muvofiq mahalliy kommunistlar Turkistonda armiyaning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, partiyaviy-siyosiy apparatni kuchaytirish maqsadida qator qarorlar qabul qilishdi. Masalan, Turkrespublika inqilobiy kengashi huzurida siyosiy bo'limlar, frontlarda esa inqilobiy kengashlar tashkil etiladi. Mazkur bo'lim va kengashlar esa o'z navbatida targ'ibot-tashviqotni kuchaytirish, aholi, keng jamoatchilik ongiga sovet hokimiyati mafkurasi, g'oyasini chuqurroq singdirish maqsadida ommaviy ravishda qizil armiya nashrlarini tashkil eta boshlaydi (2, 10).

Targ'ibot va tashviqot masalasida P.Agapov dissertatsiyasi avtoreferatidagi ma'lumotlarga e'tiborni qaratsak, savolga yanada aniqroq javob topilgandek bo'ladi (2, 11). Masalan, tadqiqotchining keltirishicha, qizil armiyaning "Krasniy front" gazetasi 1919-yil 26-may sonida Turkiston markaziy ijroiyo qo'mitasi (Turksik) ning "Qizil Sovet Turkistoni xavf ostida" (Krasniy Sovetskiy Turkestan V opastnosti!) nomli murojaatni chop etadi. Sho'rolar mafkurasi ruhi bilan sug'orilgan mazkur hujjat "Barcha sovet hokimiyati himoyasiga, hokimiyat ishchilar, kambag'al krestyan va dehqonlarga!" degan da'vat, qizil shior bilan yakunlangan. Material bolsheviklar kommunistik partiyasining (SK RKP (b)) sharqiy front bilan bog'liq holat bo'yicha qabul qilingan tezisi ijrosi yuzasidan tayyorlanadi. Partiyaviy ruhda qizil askarlarga nashr orqali balandparvoz murojaat yo'llanadi. Gazetaning 1919-yil 6-iyun sonida esa "So'z Qizil Turkiston musulmon yo'qsillariga" (Slovo K musulmanskomu proletariatu Krasnogo Turkestana) nomli material chop etiladi. Unda ham shunday ruh aks etadi. Ya'ni turkistonlik musulmon yo'qsillar ko'ngilli ravishda qo'liga qurol olishga, katta og'alari bilan yelkama-yelka turib, qizil armiya safida qattol dushmanga hal qiluvchi zarbani berishga da'vat qilinadi.

Turkfront tomonidan chop etilgan yana bir nashr "Gornist" esa 1919-yilning 29-iyundagi sonida chop etilgan maqolada Kaspiyortidagi mahalliy aholini qizil armiya safiga kirish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga chaqiradi (2, 11).

Keltirib o'tilgan misollardan ham ko'rinib turibdiki, milliy ozodlik harakati avj olgan davrda Turkiston hududida chop etilgan harbiy nashrlardan hukmron mafkura asosan tashviqot quroli sifatida foydalanadi.

Maqola boshida keltirib o'tilgan "Shefor" gazetasi haqida alohida to'xtalib o'tishimizning sababi bor. Negaki, P.Agapov tadqiqotida uni milliy harbiy nashrlar sirasiga qo'shadi. Nega "Shefor" gazetasi nemis, venger, yugoslav va boshqa tillarda chiqqan nashrlarga o'xshab baynalmilal deb nomlanmaydi? Dastlab gazeta haqida batafsil ma'lumot bersak.

Olim asosiy fakti gazetaning bosh muharriri N.Sarkisyansga tayangan holda keltiradi (18). N.Sarkisyans Kaspiyorti fronti harbiy

inqilobiy kengashi huzuridagi siyosiy bo‘lim organi hisoblangan “Gornist” gazetasida faoliyat yuritgan. Qizil armiya Marvni ishg‘ol etganidan keyin arman millatiga mansub aholini sovet hokimiyati tarafiga og‘dirish uchun Sarkisyansga varaqalar chiqarish topshirig‘i beriladi. Arman tilidagi varaqalar 1919-yilning 15-iyuligacha chop etilib, keng tashviqot ishlari olib boriladi. Shundan keyin, aniqrog‘i 1919-yilning 25-iyulidan boshlab “Shefor” gazetasini chop etishga siyosiy bo‘lim tomonidan qaror qilinadi. Nima maqsadda arman tilida gazeta chop etila boshlandi? Olim P.Agapov “Shefor” gazetasini chop etishdan maqsadni asosiy tashkilotchi bo‘lgan siyosiy bo‘lim ma‘lumoti orqali tushuntiradi. Ya‘ni “Gornist” gazetasining 1919-yil 17-oktyabr sonida berilgan materialda Kaspiyorti fronti siyosiy bo‘limi boshlig‘i buni sinfiy kurashning asl mohiyati, kommunistik partiya ko‘zlagan maqsadi va tanlagan yo‘lini arman ishchilariga chuqurroq singdirish bilan izohlaydi. Sarkisyansning ma‘lum qilishicha, Kaspiyortidagi arman mehnatkashlari “Shefor” gazetasini zo‘r quvonch bilan kutib olishgan. Buni gazeta chop etilgach, tahririyatga kelgan ko‘plab xatlar ham isbotlaydi.

Xo‘sh, “Shefor” maqsadiga yeta olganmi? “Gornist” gazetasining 1919-yil 17-oktyabr sonida berilgan maqolada yozilishicha, qisqa vaqt ichida inqilobchi arman yoshlari va o‘qituvchilaridan iborat faol auditoriya yuzaga kelgan. Ya‘ni jamoatchi muxbirlar shakllanadi. Aholining faol qatlami bo‘lgan yoshlarning, ilg‘or qatlami bo‘lgan ziyolilarning ongiga nashr tez sur‘atda kirib bordimi, demak maqsad yo‘lida katta qadam tashlangan. Savolga shu faktning o‘zi orqali javob berish bilan cheklansa bo‘lardi. Ammo yana bir fakt e‘tiborni tortdi. Maqolada keltirilishicha, qisqa vaqt ichida gazeta sahifalarida 23 ta bosh maqola, 77 ta maqola, 14 ta belletristik material, 12 ta felyeton, 7 ta she‘r chop etiladi. Ma‘lumot o‘rnida aytish kerakki, “Shefor” ning jami 29 ta soni chop etiladi. Bosh maqolalar soni misolida fikr yuritib ko‘rsak, axborot makonida muhoraba ayovsiz bo‘lganini anglash mumkin. 29 ta sonida 23 ta bosh maqola e‘lon qilinganini qanday izohlash mumkin? Bu nashrning deyarli har bir sonida gazetxonlarga keng targ‘ibot, tashviqot olib borilganini, ijtimoiy fikrda sho‘rolar mafkurasi haq ekaniga ishonchni mustahkamlashganidan dalolat emasmi?! P.Agapovning yozishicha, “Shefor” gazetasi nusxalari saqlanib qolmagan. Ammo undagi materiallardan ayrimlari “Gornist” gazetasida ko‘chirib bosiladi. Masalan, N. Sarkisyans muallifligidagi “Bizning yo‘l” maqolasini olaylik. Maqolada muallif sovet Rossiyasi xalqlarining yangi hayot uchun mashaqqatli va qahramonona yo‘lini ulug‘laydi, barcha millatlar ishchi va dehqonlarining birodarlik ittifoqi zaruratini ta‘kidlaydi. Ya‘ni maqolaning asosiy g‘oyasi sovet tuzumini, sho‘rolar tanlagan yo‘lni jamoatchilikka keng targ‘ib qilishga qaratiladi.

Internet manbasida keltirilishicha, 1901-yilda Ashxobodda taxminan 36,5 ming aholi bo‘lib, ularning 11,2 mingini forslar, 10,7 mingini ruslar, 14,6 mingini esa armanlar tashkil etgan (19). Shahar aholisining asosiy qismi armanlardan iborat bo‘lgan.

Rossiya tashqi ishlar vazirligi huzuridagi tahliliy markaz direktori Andrey Kazansevning fikricha, 1917-yildagi inqilobga qadar Turkmanistonda Turkiston general gubernatorligi alohida Kaspiyorti o‘lkasini tashkil etib, hozirgi ozarbayjon hududidan armanlarni ommaviy ravishda Ashxobodga ko‘chiradi (20). Demak, nega Ashxobodda arman

tilida harbiy gazeta chop etilganiga mazkur omil orqali javob bersa bo'ladi. Ya'ni shaharning asosiy qismini armanlar tashkil qilgani sababli "Shefor" mahalliy aholining nashri sifatida talqin etiladi. Arman tilida harbiy gazeta chop etilishida sho'rolarning boshqa maqsadi bo'lmaganmi? "O'zbekistonning yangi tarixi" kitobida shunday yozilgan: "Ergash uning talablarini bajarishdan bosh tortgach, Perefilyev Qo'qon shahrini 12 zambarakdan o'qqa tutdi. Kunduz soat birda boshlangan o'q yomg'iri shomgacha shaharni vayronaga aylantirdi. Ammo shunga qaramay muxtoriyatchilar taslim bo'lmadilar. Shaharni qizil gvardiyachilar, avstro-venger harbiy asirlari va arman birlashmalari (dashnoqlar) dan tashkil topgan sovet qo'shinlari hujumidan uch kun himoya qildilar... Qizil gvardiyachilar, ayniqsa, arman dashnoqlari ko'p vahshiyliklar qilib, shaharni talon-taroj qildilar" (14, 66–67). Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, Turkistondagi milliy ozodlik uchun kurashni bostirishda qizil armiya safida arman dashnoqlaridan tashkil topgan bo'linmalar bo'lgan. Demak, fitna san'atini puxta egallagan sho'rolar qizil armiyaning Kaspiyorti fronti bo'linmalarini turkiylarga tarixiy adovati bo'lgan arman millatiga mansub fuqarolar, xususan, dashnoqlar hisobiga mustahkamlashdek vazifani o'z oldiga qo'ygan va bunda eng katta targ'ibot vositasi sifatida gazetadan unumli foydalangan. Birinchidan, "Gornist" gazetasida faoliyat yuritgan Sarkisyansning armanlarni sovet hokimiyati tarafiga, qizil armiya safiga o'tishini targ'ib qiluvchi varaqalar chiqargani, ikkinchidan, arman tilidagi harbiy gazetaga bosh muharrir bo'lib, millatdoshlarini "yangi hayot uchun" qahramonlarcha kurashga chaqirgani buni isbotlab turibdi.

Xulosa qilib aytganda, "Shefor" harbiy gazetasidan sho'ro mafkurasi quyidagi maqsadlarni ko'zlagan:

- *sovetlar siyosati to'g'ri ekanligiga arman jamoatchiligini ishontirish;*
- *mahalliy aholida sho'ro dushmanlariga qarshi nafratni shakllantirish;*
- *qizil armiya saflarini mahalliy aholi, xususan, armanlar hisobiga butlash va mustahkamlash;*
- *Turkiston milliy ozodlik harakatiga qarshi kurashda armanlarni faol safarbar etish.*

### **Xulosa**

P.Agapov tadqiqotida "qizil armiya ommaviy nashrlarining Turkistondagi aksilinqilobiy kuchlarni yakson etish davridagi safarbarlik va tashkiliy roli" degan fikrni beradi. Bu matbuotda sho'rolar katta g'oyaviy qurol sifatida foydalanilganini isbotlaydi. Bunga birgina misolning o'zi kifoya qiladi. Masalan, Turkfront siyosiy boshqarmasining organi hisoblangan harbiy nashrlar "bosmachi", "bosmachilik" harakati tushunchalari ongimizga singishida, aniqrog'i, peshonamizga tamg'a qilib yopishtirilishida ancha "ter" to'kkan. "Dobyem basmachestvo", "Protiv basmachej", "Borba s basmachestvom" kabi ruknlarda muntazam maqolalar chop etilib, matbuot orqali sovet tarixshunosligining "bosmachilik" konsepsiyasi yozildi. Turkfront muassisligida chop etilgan "Krasnoarmeyes", "Krasnaya zvezda", "Krasniy front",

“Krasnoarmeyskaya gazeta”, “Nabat revolyutsii”, “Gornist” va maqolada tilga olib o‘tilgan harbiy nashrlar bu masalada “uloqchi ot” bo‘ldi. Ya‘ni “qizil armiya — mehnatkashlar xaloskori”, “bosmachilik — sinfiy dushman” degan soxta tasavvurlarni ijtimoiy fikrga singdirish uchun ulkan kuch tashlashdi.

Sho‘rolar Turkistondagi milliy ozodlik uchun kurash mohiyati o‘zanini OAV orqali o‘zgartirishga nega intilishdi?. Bunga katta kuchni safarbar etishdi? Bu kurash nimani fosh etib qo‘yishi mumkin edi? Avvalo, Turkistonda bu olov sovet hokimiyati hukmronligi va zulmiga qarshi alanga olgandi. Xalqning qo‘zg‘olishi sovetlarning hokimiyati va g‘oyalarini tan olmaganini ko‘rsatardi. Cho‘lpon aytgan dengiz, to‘lqin, kuch paydo bo‘lgandi. Bu katta to‘fonni sovetlarcha zo‘ravonlik, kuch, tahdid, fitna va boshqa sinalgan, sinalmagan usullar bilan bostirishga harakat qilindi. Xalq ongini zaharlash, voqelikni soxtalashtirish, noto‘g‘ri talqin etish, sotxa tarix yaratish uchun matbuot kuchidan ustunlik bilan foydalanishdi. Mahalliy tilda, baynalmilal xalqlar tilida harbiy nashrlar chop etish orqali sho‘rolar Turkistondagi avj olgan ozodlik, erk uchun kurashni bostirishda harbiy asirlarni, yerli xalq vakillarini qizil armiya safiga ko‘proq kiritish, ularni chirkin siyosati haq ekanligiga ishonitirish yo‘lidani bordi.

Turkistonda xalqning, keng jamoatchilikning o‘zi guvoh bo‘lgan, boshidan kechirgan voqealarini sho‘rolar chop etgan harbiy nashrlar yordamida faol targ‘ibot, tashviqot orqali mutlaqo boshqa o‘zanga o‘zgartirish, teskari tomonga bunday burib yuborish, milliy ozodlik kurashini soxtalashtirish mustabid tuzumning, kommunistik mafkura maddohlarining jirkanch qiyofasini yana bir bor ko‘rsatadi. Harbiy nashrlarning asl maqsad va vazifalari haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- *Turkiston xalqlarining milliy ozodligi uchun kurashini “bosmachilik” harakati sifatida buzib ko‘rsatish;*
- *tarixiy haqiqatni soxtalashtirish;*
- *soxta sovet mafkurasi yordamida qizil armiya saflarini mahalliy aholi, harbiy asirlar hisobiga butlash;*
- *ijtimoiy fikrda qizil armiyaga nisbatan ijobiy fikrlarni hosil qilish;*
- *sho‘ro dushmanlariga qarshi ayovsiz kurash ruhini singdirish;*
- *mafkuraviy targ‘ibotni kuchaytirish.*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Аннакурдов М. К истории коммунистической печати в Туркменистане. — Ашхабад: Госиздат ТуркмССР, 1958. — 205 с.
2. Агапов П.В. Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. — Т., 1967. — 27 с.
3. Восьмой съезд РКП(б) март 1919 года протоколы. — Москва: Государственное издательство политической литературы, 1959. — 601 с. [https://istmat.org/files/uploads/51514/8\\_sezd.pdf](https://istmat.org/files/uploads/51514/8_sezd.pdf)
4. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918–1924 йиллардаги халқ қурашлари



- тарихшунослиги). — Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. — 174 б.
5. Интернационалисты. Трудящиеся зарубежных стран — участники борьбы за власть советов. Том 1,2. — М.: Наука, 1967. — 614 с. <https://internacionalisty.blogspot.com/2014/06/7-2.html>
  6. Поворот мирового значения. — М., 1964. — 232 с.
  7. Раджабов К. Вооруженное движение в Туркестане против советского режима (1918-1924). — LAMBERT Akademik Publishing, 2018. — 224 с.
  8. «Россия в первой мировой войне 1914—1918 гг. (в цифрах)». — М., 1925. — 276 с.
  9. Саид З. Танланган асарлар. (Тўпловчи Ш.Турдиев). — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. — 280 б.
  10. Сафаров А. Ҳарбий журналистика асослари: ўқув қўлланма. — Тошкент: “Мухр-пресс” нашриёти, 2002. — 272 б.
  11. Сологубов И.С. Иностранцы коммунисты в Туркестане, 1918-1921 гг. — Ташкент: Госиздат Узбекской ССР, 1961. — 179 с.
  12. F. Willfort. Turkestanisches Tagebuch Sechs Jahre in Russischen Zentralasien. — Wien, 1930. — 327 с.
  13. Хамаев Н. Ўзбекистонда Совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат ва ҳарбий матбуот // Ўтмишга назар. — 2019. — № 10. — Б. 69–77. <https://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2019/09/tarix-2019-10/69-78.pdf>.
  14. Ўзбекистоннинг янги тарихи, К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. — Т.: Шарқ, 2000. — 688 б.
  15. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар журналы, 1967 йил 2 сони, 40-бет.
  16. Центральный государственный архив УзССР, ф. Р-25, оп. 1, д. 18, л. 38, 39; ГАТО, ф. 10, оп. 13, д. 37. лл. 122, 123; Центральный государственный архив Советской Армии ф. 25859, оп. 3, д. 33, лл. 229, 272, 351.
  17. ЦГА УзССР, ф. Р-25, оп. 1, д. 51, лл. 63, 66, 79; д. 182, лл. 16, 17, 19; A. Brun. Troublesomes Times. London, 1931, p. 169.
  18. “Горнист”, 1919 йил, 17 октябрь.
  19. <http://sobesednikam.ru/panorama/item/>
  20. <https://ru.armeniasputnik.am/20170211/armyanskiy-gorod-ashkhabad-6370809.html>
  21. <https://stikss.ru/55de79b>

### References

1. Annakurdov M. *K istorii kommunisticheskoi pechati v Turkmenistane* (On the history of the Communist Press in Turkmenistan), Ashkhabad: Gosizdat TurkmSSR, 1958, 205 p.
2. Agapov P.V. *Voennaya pechat' Turkestana v gody grazhdanskoi voyny (1918-1920 gg.)* (The military seal of Turkestan during the Civil War (1918-1920)): Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 1967, 27 p.
3. *Vos'moi s"ezd RKP(b) mart 1919 goda protokoly* (The Eighth Congress of the RCP(b) March 1919 Protocols), Moscow: Gosudarstvennoe

- izdatel'stvo politicheskoi literatury, 1959, 601 p., available at: [https://istmat.org/files/uploads/51514/8\\_sezd.pdf](https://istmat.org/files/uploads/51514/8_sezd.pdf)
4. Zieeva D. *Turkiston millii ozodlik xarakati. (Mustabid tuzumga qarshi 1916 il va 1918—1924 iillardagi khalq kurashlari tarikhshunosligi)* (Turkestan national liberation movement (Historiography of the popular struggles of 1916 and 1918-1924 against the Muslim regime)), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiet va san"at nashrieti, 2000, 174 p.
  5. *Internatsionalisty. Trudyashchiesya zarubezhnykh stran - uchastniki bor'by za vlast' sovetov* (Internationalists. The workers of foreign countries are participants in the struggle for Soviet power), volume 1, 2, Moscow: Nauka, 1967, 614 p., available at: <https://internacionalisty.blogspot.com/2014/06/7-2.html>
  6. *Povorot mirovogo znacheniya* ("A turn of global importance"), Moscow, 1964, 232 p.
  7. Radzhabov K. *Vooruzhennoe dvizhenie v Turkeстане protiv sovetского rezhima (1918-1924)* (The armed movement in Turkestan against the Soviet regime (1918-1924)), LAMBERT Akademik Publishing, 2018, 224 p.
  8. *Rossiya v pervoi mirovoi voine 1914—1918 gg. (v tsifrakh)* ("Russia in the First World War of 1914-1918 (in numbers)"), Moscow, 1925, 276 p.
  9. Said Z. *Tanlangan asarlar. (Tuplovchi Sh.Turdiyev)* (Selected works (Collector Sh.Turdiyev)), Tashkent: Adabiet va san"at nashrieti, 1974, 280 p.
  10. Safarov A. *Harbii zhurnalistika asoslari* (Fundamentals of military journalism), Tashkent: Muhr-press, 2002, 272 p.
  11. Sologubov I.S. *Inostrannye kommunisty v Turkeстане, 1918-1921 gg.* (Foreign Communists in Turkestan, 1918–1921), Tashkent: Gosizdat Uzbekskoi SSR, 1961, 179 p.
  12. Willfort F. *Turkestanisches Tagebuch Sechs Jahre in Russischen Zentralasien*, Wien, 1930, 327 p.
  13. Khamaev N. *Utmishga nazar*, 2019, No 10, P. 69–77. Available at: <https://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2019/09/tarix-2019-10/69-78.pdf>
  14. *Uzbekistonning yangi tarixi, K.2. Uzbekiston sovet mustamlakachilik davrida* (New history of Uzbekistan, K.2. Uzbekistan during the Soviet colonial period), Tashkent: Shark, 2000, 688 p.
  15. *Uzbekistonda izhtimoi fanlar zhurnali*, 1967, No 2, 40 p.
  16. Central State Archive of Uzbekistan, f. R-25, on. 1, d. 18, l. 38, 39; GATO, f. 10, op. 13, d. 37. ll. 122, 123; *Tsentral'nyi gosudarstvennyi arkhiv Sovetskoi Armii* (The Central State Archive of the Soviet Army), f. 25859, op. 3, d. 33, ll. 229, 272, 351.
  17. Central State Archive of Uzbekistan, f. R-25, on. 1, d. 51, ll. 63, 66, 79; d. 182, ll. 16, 17, 19; A. Brun. *Troublesome Times*. London, 1931, p. 169.
  18. Gornist, 1919, 17 october.
  19. <http://sobesednikam.ru/panorama/item/>
  20. <https://ru.armeniasputnik.am/20170211/armyanskiy-gorod-ashkhabad-6370809.html>
  21. <https://stikss.ru/55de79b>